

## TARIX FANINI QIZIQARLI O'TISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA SAMARALI USLUBLAR.

**RASULLOVA FERUZA FAXRIDDINOVNA**

*Toshkent shahar Yashnobod tumani*

*226- maktab tarix fani o'qituvchisi.*

**Anotatsiya:** Ushbu uslubiy tavsiya va yondashuvlarda tarix fani o'qituvchilari uchun yangi interaktiv va zamonaviy texnologiyalar asosida dars o'tishning o'ziga xos ijobjiy tomonlari haqida fikrlar shuningdek ta'lif sifatini oshirish, o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish va ularning mustaqil fikrash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatli ekanligi haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy, innovatsiya, metodika, texnika,videolar, mustaqil fikrash, tahlil, taqqoslash, qiziqarli faktlar.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglash darajasi jamiyatning intelektual salohiyatini belgilaydi.

Tarix bu nafaqat o'tmishni o'rganish balki hozirgi zamonni tushunish va keljakni to'g'ri qurish uchun muhim fanga aylanmoqda.Tarix darsi- bu o'tmishdan saboq olish,uni tahlil qilish va bugungi kun bilan bog'lashdir.

O'quvchilarda tarixga nisbatan qiziqish uyg'otish uchun darslar avvalombor diqqatni jalb qila oladigan, interaktiv,hayotiy mavzuga yaqin va o'ziga xos bo'lishi zarur.Har bir dars – bu kichik sahna , o'qituvchi esa unga jon baxsh etuvchi ijodkordir.Bugungi tarix o'qituvchisi -axbarot va texnologiya asrida ijodkorlik bilan yondashadigan mutaxasis bo'lishi shart.

Tarix -faqat sanalar emas, balki voqealar, faktlar , insonlar va g'oyalar yig'indisidir.O'quvchilar tarixni yodlash emas, undagi malumotlarni his qilishi ,taqqoslashi, tahlil qilishi ,sabab va natijani tushunishi va keljak bilan to'g'ri baholay olishi ularning tarixiy xotirasini butun umrga mustahkamlaydi.

Tarixni o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish innovatsion yondashuvlardan eng samarali usullaridan biridir.Masalan, tarixiy hujjatlar, suratlar va videolar orqali o'quvchilar o'sha davr muhitini his qilishlari , voqealarni yanada yaqinroq ko'rishlari mumkin.Bu esa o'quvchilarning tarixga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi va ularni chuqurroq o'rganishga undaydi.Tarixiy diskussiyalar va munozaralar o'quvchilarning tanqidiy fikrashlarini rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi.Munozaralar orqali o'quvchilar tarixiy faktlarni solishtirish , ularning ishonchlilagini baholash va tarixiy hodisalarni kontekstda tushunish qobiliyatlarini oshiradilar.(1)

Texnologiyalar yordamida yaratilgan interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar tarixni o'qitishda yangi imkoniyatlar yaratadi. O'quvchilar tarixiy voqealarni o'zları boshqarishi, muayyan qarorlar qabul qilishi mumkin bo'lган sharoitda o'rganish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo'ladi. Elektron resurslar va onlayn platformalar ham tarix fanini o'qitishda keng qo'llanilmoqda. Internet orqali o'quvchilar turli tarixiy manbalar, ilmiy maqolalar va arxiv materiallariga erkin kirish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa, ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi, tarixiy bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Onlayn testlar, viktorianalar va interaktiv mashqlar o'quvchilarning bilim darajasini nazorat qilishda qulay vosita hisoblanadi.(2)

Tarix darsini sinflar kesimida samarali tashkil etish har bir yosh bosqichining psixologik,intellektual va didaktik xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.Masalan 5-6 sinflarda tarix darsini tashkil etishda xususiyatlar o'quvchilarda tarixiy tafakkur endi shakllanayotgan bo'lib ,tasvirli va jonli obrazlar orqali yaxshiroq qabul qiladilar,emotsional ta'sir kuchli bo'ladi.Bu yoshdag'i o'quvchilarga tavsiyalar: tarixiy hikoya, afsonalar, rolli o'yinlar-“Qadimgi Misrda hayot”, “Qadimgi Xorazmda bir kun “ ,”Turon va Eron “ mavzusida diplomatik muzokaralarni sahnalashtirish, “Milliy uyg'onish davri jadidlar Majlisi” mavzulari asosida sahna ko'rinishlari shu asosda tarixiy vaqt,davr, xalq tushunchalarini sindirish shuningdek barcha sinf o'quvchilari uchun bir xil tavsiya diqqatni jalg qilish maqsadida savol:”Amir Temurni nafaqat sarkarda balki strateg bo'lganini bilasizmi? U Google Mapssiz dunyoni qanday boshqargan deb o'ylaysiz?” bunday savollar o'quvchilarni o'ylantiradi va darhol e'tiborini darsga qaratadi yoki hayrotomuz ma'lumotlar:1896-yilda Britaniya va Zanzibarning urushi atigi 38 daqiqa davom etgan. Bu tarixdagi eng qisqa urush hisoblanadi.

7-8 sinf o'quvchilarida esa tarixiy tafakkur shakllanayotgan bosqich bo'lib ulardagi xususiyatlar tanqidiy fikrlash endi shakllanayotgan bo'lib guruhda ishlashga moyillik kuchayadi.Tarixiy voqealarni tahlil qilishga o'rgatuvchi savollar bering,tarixiy xaritalar bilan faol ishlang, xronologik jadval tuzish, interaktiv testlar va krossvordlar orqali darsni qiziqarli tashkil etish tavsiya etiladi.SHuningdek, qiziqarli iqtiboslar o'quvchi ongiga va diqqatiga ta'siri sezilarli darajada bilinadi misol: Beruniyning “Meneralogiya” kitobida shunday yozadi:<<Mehnatsiz shon- shavkatga, martabaga erishgan kishi hurmatga loyiqli? Yuqori martabaga mehnatsiz erishgan kishi farog'at va rohat soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo ulug'lik libosidan mahrum, yalong'ochdir>>.Bilamizki, har qanday orzu- istakning o'zagi mehnat va harakatdir degan xulosa kelib chiqadi.(3)

9-10-sinf o'quvchilarida tarixiy ong va ijtimoiy munosabat shakllanadi.O'quvchilar tarixiy voqealarni sabab- natijalar nuqtai nazaridan tushunishga qodir bo'ladilar,ular mustaqil xulosa chiqarishga intiladilar.Albatta darsda qisqa videoroliklar orqali mavzuni yanada jonli tushuntirish mumkin.Bundan tashqari

viktorianalar, tezkor savol- javoblar ,blitzz testlar bo'lishi dars atmosferasini yanada boyitadi.Munozara va debatlar:"Jadidlar – davr qurboni yoki islo hatchchi?"

11- sinf o'quvchilarida esa tarixiy tahlil va zamonaviylik bilan bog'lash bosqichi bo'lib,ular mustaqil , fikrlay oladi, bahsga kirishishga tayyor,voqealarni zamonaviy hayot bilan bog'lay olish darajasi ortadi.Munozara va debatlar:"Sovet siyosatining ijobiy va salbiy oqibatlari", "O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi yutuqlari", shuningdek qiyosiy tahlil:turli davrdagi siyosiy,iqtisodiy holatlarni taqqoslash, islohatlar mohiyati , hukumat rahbarlarining amalga oshirgan faoliyatlarini taqqoslash kabi tavsiyalar beriadi.

Tarixni bugun bilan bog'lash o'quvchilarga tarixiy voqealarning hozirgi hayotdagi izlarini ko'rsatish kerak:

-Qadimgi irrigatsiya tizimlari va bugungi suv muammolari

-O'rta asrlar diplomatiyasi va hozirgi xalqaro munosabatlar.

-Tarixiy shaxslar bilan zamonaviy liderlar o'rtasidagi o'xshashliklar. Bu yondashuv orqali tarix fanining ahamiyati va dolzarbli o'quvchiga yaqinroq bo'ladi.

Muammoli savollar ham o'quvchilarning tanqidiy va analitik fikrlashini shaklantiradi .Masalan:"Buyuk Ipak yo'li bugungi global iqtisodda qanday ro'l o'ynagan bo'lardi?" Barcha sinf o'quvchilarida VENN diagrammasi usuli mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv ,ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Ayniqsa , "sanalar tilga kirganda" interfaol usuli orqali o'tilgan mavzuga oid muhim sanalar slayd yoki ko'rgazmali holda ko'rsatilib, bir yilda sodir bo'lgan voqelar tarzida so'ralsa va ushbu usul tarix darslarida tez-tez qo'llanilsa, o'quvchilarning sanalarga diqqatli bo'lish va yodlab olish qobiliyatlarini shakllanishiga sabab bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va qiziqarli uslublar qo'llanilsa o'quvchilarning fanga bo'lgan e'tibori oshib, qolaversa mavzularni oson tushunishga , bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.Zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, pedagogik yondashuvlarni yangilash, o'quvchilarning yosh va qiziqishlariga mos metodlarni tanlash o'qituvchilardan yuqori malaka va doimiy o'zini rivojlantirishni talab qiladi. O'qituvchi- pedagog borki, izlanishlar bilan yangiliklarga intilib darslarni zamonaviy usulda tashkil etsa , o'zi hatto o'quvchilari ham yuksak yutuq va marralarni zabit etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rasulova,N (2024) "Innovatsion metodlar yordamida tarixni o'qitish: nazariya va amaliyot."Toshkent: Ta'lim.
2. Islomov, B (2022)."Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va tarix fanini o'qitish".Toshkent: Pedagogika.
3. Tarix fanidan umumiyligi o'rta ta'lim uchun darsliklar.(5-11- sinf)
4. Karimov,M(2020) "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va tarix".Toshkent. Fan va ta'lim.